

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TIZIMI HAQIDA

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Yuldashboyeva Mashxura Ulug'bek qizi - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotation. Ushbu maqolada yaqin o'tmish, Rossiya imperiyasi bosqini davri, Sovet davri va mustaqil O'zbekistonning ta'lif tizimlari haqida atroficha fikrlar bildirilgan. Ta'lifning davlat taraqqiyotidagi tutgan katta o'rni va ahamiyati xolis yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Skobelov, ta'lif tizimi, mакtab va madrasa, ta'lif tizimi bosqichlari, Ta'lif to'g'risidagi qonun, dunyoviy va diniy ta'lif, Oliy va oliy ta'lifdan keyingi ta'lif.

Tarixdan ma'lumki, Xonliklar davrida Turkistonda xalq maorif o'choqlari- maktablar va madrasalar tizimi o'z davriga xos tarzda mavjud edi. Mustamlakachilik davrida esa, bunday maktab va madrasalar ta'lifi, ulardagi mudarrislar ta'qib ostiga olingani ayni haqiqatdir. Ushbu maqola orqali aynan sovet davri va hozirgi mustaqil O'zbekistonning ta'lif tizimiga nazar tashlab, qanday jarayonlar bo'lib o'tgani va ta'lif tizimida qanday yangiliklar bo'lgani haqida fikrlarimizni yuritib, aniq faktlar bilan tanishib chiqsak.

XX asrning boshlariga kelib bolsheviklar tomonidan hokimiyat egallanadi va O'zbekistonda ham Sovet tipidagi maktablar va texnikumlar ochilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Yana shuni ham aytish kerakki, maktab, madrasa ta'lifi va vaqf maktablari rivojlangan o'rta asrlardan buyon davom etib kelayotgan edi. Mustamlakachilar mamlakatning asosiy ustuni bo'lgan ta'lif tizimini o'z qarashlari bilan boyitib, bosib olingen hudud aholisining ham yurtini, ham ana shu yerda yashayotgan minglab aholining ongini zabit etmoqchi bo'lishgan. Bunga asos qilib sovet hokimiyati yillarida komunistik partiya

yurgizgan siyosat natijasida O'zbekiston maktablari va Oliy o'quv yurtlarida Vatan tarixini o'qitish masalasiga umuman e'tibor berilmaganligini aytishimiz mumkin[Irzayev B. 2018. 35-40-b.].

Shuningdek o'sha vaqtdagi ta'limning cheklangani isbotida, ikkinchi jahon urishidan keyin Sobiq ittifoqning barcha Respublikalarga, sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlariiga Markazning buyrug'i yuborilib, unda turli mavzularda ko'rsatmalar belgilandi. Xususan, buyruqlardan birida ta'lim sohasida katta e'tibor qozongan o'qituvchilar ishdan chetlashtirilishi lozim bo'ladi. Ularning o'rniga biz tomondan belgilangan kishilarni qo'yish kerak deb, aytib o'tiladi. Zero, Skobelevning "Millatni yo'q qilishu chun uni qirish shart emas, uning ma'daniyatini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi, degan so'zlarini eslab o'tish o'rnlidir[Shamsutdinov R., Karimov Sh. 2010. 390-397-b].

Rus hukumati imkonni boricha milliy til va milliy madaniyatni rivojlantirishga ongli ravishda to'sqinlik qilib ta'lim tizimiga mablag' ajratilishi hamda e'tibor qaratilishi past darajada bo'lgan. Kamolotga yetgan, Vatan haqidagi tushunchalarni bilgan, manaviyat, madaniyat va o'z zamonasining chuqur bilimlarini egallagan shaxslarni yo'q qilib, o'zi tayinlagan ishchilar ochilgan maktablar va turli xil korxonalar orqali o'z ma'naviyatini o'z qarashlarini bir niqob ostida kirgizishga harakat qilgan[Shamsutdinov R., Rasulov B. 1995. 29-31-b.].

Vatanimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab hozirgacha bo'lgan ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar yo'lini bosib o'tdi. Mustaqillik yillariga kelib ta'lim sohasidagi taqiqlar, turli xil cheklanishlar, bosim o'tkazish kabi narsalarga barham berilib davlatning barkamolligiga, tinchlikka, ezgulikka, yetaklash uchun eng muhimi bu Vatanning tayanchi hisoblangan xalqni bilimli qilishni boshlash, yosh avlodni bilimli qilishga harakat qilish kerakligi tushunib yetildi. Eng avvalo, 1992-yilda mustaqil Respublikamizda ta'limni o'rni, vazifasi, huquqiy kafolatlarini belgilaydigan birinchi ta'lim to'grisidagi qonun qabul qilindi [www.wikipedia.uz internet sayti].

Maxsus qonun Respublikamizda ta’lim mustaqilligini ta’minlab berish, kelajakda uni milliylashtirishga, ta’lim taraqqiyotiga ta’luqli bo’lgan barcha vositalarni oradan olib tashlash bo’yicha ta’lim boshqaruvi organlari rahbarlari uchun to’la huquqiy kafolatlar berish kerak edi. Bundan tashqari, ta’limda demokratik va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishi, ta’lim bo’yicha xorijiy davlatlar bilan mustaqil ravishda hamkorlik qilish yo’llarini ochib berishi, tajriba sinovlar o’tkazilishini rag’batlantirishga keng shart sharoitlar yaratilishi kerak edi.

Chunki, taraqqiyot taqdirini manaviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, keng fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi. Aynan ta’lim mamlakatning asosini tashkil etadi desak mubolag’ a bo’lmaydi.

Mustaqil demokratik O'zbekistonning zamonaviy ta'lif tizimi qanday bosqichlarga bo'linishi bilan tanishib chiqsak:

1.Maktabgacha ta’lim-tarbiya bolalarga dastlab 2 yoshdan boshlab 6-7 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo’lgan bolalarni boshlangich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni nazarda tutadi.

2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim: unda umta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka ko'nikmalarni o'zlashtorishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim (1-11)sinflar ya'ni boshlang'ich(1- 4 sinflar), tayanch o'rta ta'lim (5-9-sinflar), o'rta ta'lim (10-11) sinflar.

3. Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxasislaik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi: boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta’lim [Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni www.lex.uz sayti].

4.Oliy ta'lim: Oliy ta'lim ikki bosqichga bakalavriat va magistratura bosqichiga bo'linadi.

5.Oliy ta’limdan keyingi ta’lim bu-doktorlik desertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o’rganuvchi va ilmiy

izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

6.Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish - bu kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab berilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darjasи, razryadi va lavozimini oshishiga xizmat qiladi.

7.Maktabdan tashqari ta'lim -bolalarga uzlucksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'nnaviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-apreldagi 241-son qarori“. www.lex.uz. internet sayti] kabilarga bo'linadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekistondagi ta'lim tizimi uzoq yillik tarixiy davrni, rivojlanish va tanazzullarni, yo'qotilish va topilishlarni boshidan o'tkazgan holda yuksalish yo'lini bosib o'tmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va uni chet davlatlar tajribalarini tatbiq qilish orqali bilim va ko'nikmalar bilan boyitish uchun jadal ishlar olib borilmoqda. Demak, ko'rinish turibdiki, aynan ta'lim tizimi mamlakatning asosini tashkil etuvchi bo'gin hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Irzayev B. O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. Toshkent. 2018.
- 2.Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni www.lex.uz sayti
- 3.Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (3-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida).Toshkent. 2010.
4. Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston mакtab va madrasalari tarixi. (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). Andijon. 1995.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-apreldagi 241-son qarori“. www.lex.uz. internet sayti
6. www.wikipedia.uz internet sayti